

TERMINOLOGIYA MASALALARI BO‘YICHA NAZARIY QARASHLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Yavminova N.M

Namangan davlat texnika universiteti

Xorijiy tillar kafedrası

Katta o‘qituvchisi

N36908854@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-7214-9130>

Annotatsiya: Mazkur maqolada terminologiya fanining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda terminologik masalalarga oid ilmiy adabiyotlar tahlili olib boriladi. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning termin, termin tizimi, terminologik me‘yorlash, tarjima va standartlashtirish masalalariga oid qarashlari o‘rganildi. Shuningdek maqolada terminologiyaning nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlar va dolzarb muammolar yoritiladi. Tadqiqot natijalari terminologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: terminologiya, termin, ilmiy adabiyotlar, terminologik tizim, standartlashtirish, tarjima, leksika, leksikologiya.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы формирования и развития науки терминологии, а также научная литература по терминологическим вопросам. Рассматриваются взгляды зарубежных и отечественных ученых на вопросы терминологии, терминологической системы, терминологической нормализации, перевода и стандартизации. Также обсуждаются теоретические основы терминологии, современные подходы и актуальные проблемы. Результаты исследования служат методологической основой для исследователей, проводящих научные работы в области терминологии.

Ключевые слова: терминология, термин, научная литература, терминологическая система, стандартизация, перевод, лексика, лексикология.

Abstract: This article analyzes the formation and development stages of the science of terminology, as well as scientific literature on terminological issues. The study examines the views of foreign and domestic scientists on the issues of terminology, terminological system, terminological normalization, translation and standardization. The article also discusses the theoretical foundations of terminology, modern approaches and current problems. The results of the study

serve as a methodological basis for researchers conducting scientific research in the field of terminology.

Keywords: terminology, term, scientific literature, terminological system, standardization, translation, lexis, lexicology.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrda dunyo tilshunosliginiug diqqat markazida turli hil mavzular bilan bir qatorda terminologiya va termin masalalariga dolzarb bo‘lib turibdi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o‘rib borishi, bir tomondan ilm fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko‘payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi, va funksiyasi kabi masalarning yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq hodisa deb izohlanadi.

Terminologiya har bir til so‘z boyligining hamda tilshunoslikning katta qismini tashkil etadi. Uning jadal rivojlanishi ham bejiz emas chunki u yangi so‘zlar va so‘z birikmalar yasash imkonini beradi. Yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko‘proq kirib kelgan bo‘lsa o‘sha soha soha terminologiyasi to‘htovsiz rivojlanib bormoqda. Hozirgi globallashuv va fan-texnika taraqqiyoti sharoitida terminologiya masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Har bir ilmiy soha o‘zining aniq, tizimli va me‘yorlashgan terminlariga ega bo‘lishi bilan rivojlanadi. Terminologiya nafaqat tilshunoslikning mustaqil sohasi, balki fanlararo tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yo‘nalish hamdir.

Ilmiy terminlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi, ularning yagona ma‘noga ega bo‘lishi, tarjima jarayonida ekvivalentlikning saqlanishi ilmiy muloqot samaradorligini ta‘minlaydi. Shu sababli terminologiya masalalarini ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur maqolaning yozishdan ko‘zlangan maqsad shuki terminologiya bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, yetakchi olimlarning nazariy qarashlarini umumlashtirish hamda zamonaviy terminologik muammolarni aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot o'z oldiga quyidagi vazifalari belgilab olgan ular terminologiya tushunchasining ilmiy talqinlarini ko'rib chiqish, xorijiy va mahalliy olimlarning terminologiya haqidagi qarashlarini tahlil qilish, solishtirish va ularni umumlashtirish, terminologik muammolar va ularning yechimlariga doir ilmiy yondashuvlarni aniqlash, ularni qiyoslash, terminologiya sohasidagi asosiy tendensiyalarni belgilash va ularni ommalashtirib tadbqiq etishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Terminologiya fanining nazariy asoslari XX asrning birinchi yarmida shakllangan bo'lib bu borada avstriyalik olim, terminshunos, muhandis E. Vüster terminologiya fanining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Uning "Terminologiya nazariyasi" terminlarni standartlashtirish va tizimlashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvni taklif etgan. U birinchilardan bo'lib termin, tushuncha va ta'rif o'rtasidagi munosabatni ilmiy asosda tushuntirgan. ISO terminologiya standartlari shakllanishiga katta hissa qo'shgan. U terminologiyani faqat til masalasi emas balki fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq tizim deb hisoblagan. Hozirgi kunda biz ham terminologiya bo'yicha ilmiy ishlarimizni aynan Wuster nazariyalariga tayangan holda olib boramiz.

Termin va terminologiyaga oid nazariy qarashlar fikrimizni davomm ettirsak biz rus tilshunosligida D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, V.P.Danilenko kabi olimlar termin, terminologik tizim va terminlarning lingvistik xususiyatlarini chuqur o'rgangan deb aytishimiz mumkin. Reformatskiy terminni "aniq fan tushunchasini ifodalovchi til birligi, terminlar bular maxsus so'zlardir" deb ta'rif beradi. Kalinin esa muayyan fanlar va kasb korlikda ishlatiladigan so'zlarning maxsus leksikasi deb ataydi va ularni ikki guruhga bo'ladi. Olim o'z fikrini davom ettirib, termin va profesionalizm orasidagi farq shuki termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq ho'jaligi, texnikaga oid tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir deydi. Professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan aslini olganda tushunchaning qat'iy ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir deydi.

Rus olimi V.P.Danilenkoning fikricha har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining qat'iy ilmiy terminologiyaga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. Danilenko bu yerda qat'iy ilmiy terminologiya tushunchasini biror bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaning sohaga oid tushunchalarini ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muamalada bo'lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi.

Terminogiya voqelikning tushunishning ma'lum bir belgilangan istemasini ifodalab, intellektual aloqa kanalining biri hisoblanadi. Vinogradovning fikricha "Terminlarning yaratish va belgilashning ikki tomoni, ikki nuqtai nazari mavjud: til strukturasi va tushunish, semantik shartli ravishda ilmdagi u yoki bu tushunish sistemasini rivojlanishu" deya izoh bergan.[1]

B.N.Golovin "terminologiya" va "terminologik tizim" ifodalarini professional faoliyat sohalaridagi aloqador bir-biri bilan tushunchaviy leksik-semantik, so'z yasalishi va grammatik darajalarda bog'langan terminlar majmuini bildiruvchi sinonimlar sifatida ishlatishni taklif qiladi.

G'arb terminologiya maktabida M.T.Kabre va R.Temmerman terminologiyani kognitiv va kommunikativ nuqtai nazardan tahlil qilishni taklif etgan. Ularning ishlarida terminlar nafaqat statik birlik, balki kontekstga bog'liq dinamik birlik sifatida qaraladi.

O'zbek tili terminologiyasining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri professor Renat Doniyorov hisoblanadi [2]. Olim o'zbek tili texnik terminologiyasini tartibga solish, uning qator chalkashliklarini oldini olish kabi masalalar o'rin olgan. Shu bilan birga o'zbek tili leksikasi masalalari "Hozirgi zamon o'zbek tili", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", kabi tadqiqotlar va darsliklarda ham o'z ifodasini topgan. O'zbek terminologiyasi haqidagi prof. U.Tursunovning fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsada lekin birdaniga barpo

etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli memorlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishda o'ziga xos murakkabliklar ham shu bilan belgilanadi [3]. 1981 yilda O'zFA til va adabiyot institutining bir guruh tilshunos olimlari tomonidan "O'zbek tili leksikologiyasi" nomli yirik ish maydonga keldi. O'zbek tilshunosligida leksik qatlamlarni qiyosiy o'rganish masalalari bo'yicha ham ancha ishlar qilinganligini kuzatish mumkin. Bu borada I. Ismoilovning 1966 yilda nashr ettirgan monografiyasi ahamiyatli ishlardan biri sanaladi. Muhimi shundaki mazkur ishda o'zbek va uygur tillardagi qon-qarindoshlik terminlarining paydo bo'lishi va amalda qo'llanish meyorlari atroflicha tahlil etilgan. D.X. Bazarova va K. Sharipovalar tomonidan "O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasining taraqqiyot" deb nomlangan yirik tadqiqot maydonga kelganligini ham alohida takidlash o'rinlidir. Unda Markaziy Osiyo hududidagi turkiy tillarda qo'llanilgan zoologik terminlar tadqiqot obekti sifatida o'rganilgan. H. Dadabayevning "XI-XII asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiyasi" mavzusida yaratilgan tadqiqotida o'zbek tilidagi, jumladan turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiyaning paydo bo'lishi va tilda qo'llanilishi muammolari atroflicha o'rganilgan. Unda ayniqsa O'rta Osiyo hududidagi turkiy xalqlar tillaridagi yurt, ulus, baliq, yasaq, ordu, qazi, jaza kabi yuzlab ijtimoiy-siyosiy terminlar ishlatilganligi, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadug'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat al-haqoyiq", Zamaxshariyning "Muhaddimat al adab", Sayfi Saroiyning "Guliston bi-turkiy", Qutbning "Xisrav va Shirin", Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" kabi asarlaridan olingan terminlar misollar bilan isbotlab berilgan. Shu bilan birga, terminlarning paydo bo'lishi tarixi, ularning yasash qonuniyatlariga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar hisobiga boyishi masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, E. Begmatov kabi olimlar tomonidan ham atroflicha tadqiq etilgan.

Olimlar o'zbek terminologiyasining shakllanishi, rus va ingliz tillarining ta'siri, milliy termin yaratish muammolariga alohida e'tibor qaratganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, terminologiya masalalari asosan quyidagi yo'nalishlarda o'rganilgan terminlarning va termin bo'lmagan birliklardan farqi, terminlarning semantik va struktur xususiyatlari, terminologik tarjima qilishdagi muammolar, terminlarni standartlashtirish va me'yorlash kabilar kiradi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqola sifat metodologiyasi asosida ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot Analitik usul terminologiyaga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish, Taqqoslash usuli xorijiy va mahalliy olimlar qarashlarini solishtirish, Tizimlashtirish usuli terminologik yondashuvlarni umumlashtirish, Deskriptiv usul terminologiya muammolarini tavsiflash orqali olib borilgan. Tadqiqot uchun tanlangan manbalar sifatida terminologiya nazariyasiga oid monografiyalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va terminologik lug'atlar, terminlar haqida yozilgan xorij, rus hamda o'zbek adabiyotlari xizmat qildi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, terminologiya masalalari ilmiy adabiyotlarda ko'p qirrali yondashuvlar asosida yoritilgan. Xususan, termin tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, uning asosiy belgisi aniqlik va bir ma'nolilik ekanligi tan olinadi, zamonaviy terminologiyada kognitiv va kommunikativ yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda, tarjima jarayonida terminlarning milliy til imkoniyatlariga moslashtirilishi muhim masala sifatida ko'riladi, o'zbek terminologiyasida hali ham sinonimiya va variantlilik muammolari mavjudligi, terminlarni standardlashtirish hamda ularni tizimlashtirish zarurati hali hamon mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti natijasida ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlarning ko'payishi milliy terminologiyani boyitish bilan birga, ularni atroflicha tahlil qilish, terminlarni me'yorlash muammolarini ham yuzaga keltirib chiqaryotganligi aniqlab ko'rsatildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, terminologiya faqat lingvistik muammo emas, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq hodisadir. Terminlarni to'g'ri tanlash va joriy etish ilmiy tafakkur rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar asarlarida terminologiya tizimlashtirishga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda milliylik va til imkoniyatlaridan foydalanish masalasi ustuvor hisoblanadi. Bu esa terminologiya sohasida integrativ yondashuv zarurligini ko'rsatadi. tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy terminologik maktablar o'rtasida muayyan yondashuv farqlari mavjudligini ko'rsatadi. Xorijiy olimlar (E. Vüster, M.T. Cabré, R. Temmerman va boshqalar) asarlarida terminologiyaga asosan tizimli va universal yondashuv ustuvor bo'lib, unda terminlarni qat'iy me'yorlash, standartlashtirish va tushunchalar tizimi bilan uzviy bog'lash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv terminologiyani global ilmiy muloqot uchun moslashgan, qat'iy strukturaga ega tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda esa (R.Doniyorov, U.Tursunov, K.M.Musayev, A.Hojiyev va boshqalar) termin yaratishda milliy til imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tarixiy-lisoniy an'analarni saqlab qolish va o'zbek tilining ichki resurslariga tayangan holda terminologik tizimni boyitish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida ko'riladi. Bu holat terminologiyaning nafaqat ilmiy, balki madaniy hodisa ekanini ham tasdiqlaydi. Shu boisdan, zamonaviy terminologiya nazariyasida integrativ yondashuv zarurligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, bir tomondan, xalqaro standartlashtirish va ilmiy aniqlik talablariga mos keluvchi terminlar tizimini yaratish, ikkinchi tomondan esa, milliy tilning leksik, so'z yasash va semantik imkoniyatlarini hisobga olish orqali terminlarni moslashtirish muhim hisoblanadi. Bunday uyg'un yondashuv terminologiya tizimining barqarorligini, ilmiy muloqotda aniqlikni va milliy tilning ilmiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, terminologiya masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu sohaning bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Terminologiya fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, yangi ilmiy tushunchalarning paydo bo'lishi, ularning til orqali aniq va izchil ifodalanishini ta'minlash jarayonida muhim o'rin tutadi. Shu bois, terminologiyani rivojlantirish muammolari har bir ilmiy sohaga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi strategik masala sifatida qaralishi lozim. Terminologik tizimni takomillashtirishda, avvalo, ilmiy asoslangan yondashuvga tayangan holda terminlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning tushunchalar bilan munosabatini aniqlash va mantiqiy-mazmuniy izchilligini ta'minlash zarur. Shuningdek, terminlarni standartlashtirish va me'yorlash jarayonlari ilmiy muloqotda aniqlik va barqarorlikni ta'minlaydi, fanlararo hamda tillararo aloqalarda tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Tarjima jarayonida terminlarning ekvivalentligini ta'minlash yoki zarur hollarda asosli variantlilikni saqlash muhim masalalardan biridir. Bu, bir tomondan, xalqaro ilmiy tajribani milliy ilmiy makonga moslashtirishga, ikkinchi tomondan esa, o'zbek tilining leksik va so'z yasash imkoniyatlari orqali yangi terminlarni yaratishga sharoit yaratadi. Milliy til imkoniyatlaridan samarali foydalanish esa terminologiyani sun'iy yo'l bilan emas, balki tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida boyitishga yordam beradi. Natijada, bunday yondashuvlar o'zbek tilining ilmiy, texnik va kasbiy sohalardagi qo'llanish doirasini kengaytirib, uning leksik tarkibini zamonaviy ilmiy-texnik terminlar bilan boyitadi. Mazkur maqola terminologiya sohasida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda milliy terminologiya siyosatini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Виноградов В.В. Терминологические вопросы // Вопросы языкознания. – 1961. – С. 3–10.
2. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent, 1977.

3. Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – Москва, 1986. – С. 163.
4. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва, 1996.
5. Даниленко В.П. Русская терминология. – Москва, 1977.
6. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. – Москва, 1961. – С. 29.
7. Калинин А.В. Лексика русского языка. – Москва, 1971. – С. 141.
8. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins, 1999.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002.
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2006.
11. Mengliyev B., Sayfullayev R. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo‘lida // Ma’rifat gazetasi. – 2007 yil 21 may.
12. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008.
13. Nurmanov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 62–63.